

## BAHOLASH SHAKLLARI VA TURLARI

**Farg'ona davlat universiteti ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi  
o'qituvchisi**

**Mirzaboyev Yuldoshali Abdumannonovich**

**Kalit so'zlar:** Baholash, afzalligi, kamchilig, mezon.

Baholash uning mohiyatidan kelib chiqib, ikki xil shaklda o'tkazilishi mumkin:

1. Me'yorga asoslangan baholash.
2. Mezonga asoslangan baholash.

**Me'yorga asoslangan baholash** - nisbiy baholash shakli bo'lib, u yuqorida bayon qilingan mezonga asoslangan baholashdan so'ng, uning natijalari asosida baholanuvchilarning ta'lif jarayonida qo'lga kiritgan natijalarini o'zaro taqqoslashorqali o'lchashdan iborat.

Bu baholash shakli ham ikki bosqichdan iborat bo'lib, birinchi bosqichda baholanuvchining erishgan natijalari aniqlanadi, ikkinchi bosqichda esa, bu natijalar o'zaro taqqoslash orqali o'lchanadi.

### Afzalligi

- O'qituvchi ko'p vaqt sarflamaydi.
- Turli shart – sharoitga oson moslashtirish mumkin.
- Muayyan baholanuvchilar guruhi a'zolarini ularning o'zlashtirishdarajasiga qarab tabaqlashtirish imkonini beradi.
- Baholash natijasida guruh ichidan ma'lum sondagilarini ajratib olishimkonini beradi (masalan, olimpiadaning navbatdagi bosqichiga ishtirokchilarni yoki kollejga kirish imtihonlari natijasida, boshqalarga

nisbatan eng yuqori ko'rsatkich ko'rsatgan 25 kishini ajratib olish mumkin).

## Kamchiligi

- Faqat muayyan o'quvchilar guruhi, sinf, maktabdagi mavjudnatijalarga qiyosan baholash amalga oshiriladi.
- Baholar o'qituvchi tomonidan sub'ektiv belgilanishi mumkin.
- Bilimlarni xolisona va haqqoniy baholashning pasayishiga imkoniyatyaratadi.

**Mezonga asoslangan baholash** - baholanuvchining ta'limgarayonida qo'lga kiritgan natijalarini, bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini oldindan belgilangan o'quv maqsadlari asosida ishlab chiqilgan hamma uchun umumiy va bir xil mezonlarga ko'ra taqqoslash va o'lchashdan iborat bo'lgan baholash shaklidir. Bunday baholash shu mezonlar bilan aniq belgilab berilgan o'zlashtirish maqsadlari bo'yicha erishilgan natijalarga baho berish imkoniyatini yaratadi. Bunda natijalar bevosita va xolis baholanadi, shuningdek, o'quvchilar va sinflar bo'yicha o'zlashtirishni yaxshiroq farqlash imkonini beradi. Bu baholash shakli ikki boshqichdan iborat bo'lib, birinchi bosqichda baholanuvchining erishgan natijalari aniqlanadi, ikkinchi bosqichda esa, natijalar mezonlarga taqqoslanadi va o'lchanadi.

Mezonga asoslangan baholashning:

## Afzalligi

- O'quv maqsadiga muvofiq baholanadi.
- O'quvchining o'zlashtirish darajasi ob'ektiv baholanadi.
- Baholash o'zining aniq ko'rsatkichlariga ega bo'ladi.
- O'quvchining olgan bahosi uning yo'l qo'ygan xatolarini yaqqolko'rsatib beradi.
- Baholanuvchini ta'limgarishga yo'naltiradi;
- Baholanuvchilarning baholanayotgan sohadagi kuchli va kuchsiz

tomonlarini xolisona aniqlab beradi, ularning o‘z bilimi va malakalariga bo‘lganishochini oshiradi.

- Hamma uchun bir xil bilim va malaka talablarini o‘rnatadi.
- Ta’lim mazmunini aniqlab beradi.
- Baholanuvchilarning o‘z faoliyati natijalariga bo‘lgan mas’uliyatinioshiradi.

## **Kamchiligi**

- Mezonlarni ishlab chiqish ko‘p vaqt talab qiladi.
- Mezonlarning xolisligi, aniqligi va haqqoniyligini ta’minlashga nisbatan talablarning ko‘pligi;

**Mezon** (kriteriy) ni - baholash o‘lchov vositasi, baholash nima asosida amalga oshirilayotganligini ko‘rsatuvchi belgi sifatida qarash mumkin.

**Mezonlar asosida baholash** - o‘quvchilarning turli sohalarda o‘qib o‘rganish kompetensiyalarini rivojlantirish bo‘yicha erishgan yutuqlarini aks ettiruvchi tarkibiy qismlardan (mezonlardan) iborat bahodan iborat.

Mezonlarga asoslangan baholash – bu baholash va o‘zini o‘zi baholashning har xil turlari, shakllari va usullaridan foydalanadigan yondashuvdir.

## **Mezonlarga asoslangan baholash tamoyillari**

**ta’lim va tarbiya jarayoni bilan bog‘liqlik** – o‘lchov parametrlari ta’lim va tarbiya natijalariga qo‘yiladigan Davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturlaritalablari bilan belgilanadi;

**dolzarblik** – eng muhim ta’lim va o‘quvning faoliyatining natijalarini baholashga urg‘u berish.

**xolislik vaadolat** – bosim vositasi (yoki natijasi) bo‘lmagan aniq baholash mezonlarini sinchkovlik bilan tanlashni amalga oshirish.

**adekvatlik (muvoifiqlik)** - bilimlarni, qobiliyatlarni, ko‘nikmalarini, qadriyatlarni, malakalarni baholashning maqsadlari va ta’lim natijalariga

muvofiqligi.

**integratsiya** – baholash o‘quv jarayonining ajralmas qismi sifatida amalga oshiriladi; baholash mezonlari va strategiyalari ochiqligi va shaffofligi o‘quvchilarga oldindan yetkaziladi; o‘quvchilar baholash mezonlarini ishlab chiqishda qatnashadilar.

**ishonchlilik** – ishonchlilik darajasi ishonchlilik koeffitsienti (korrelyatsiya koeffitsienti) bilan belgilanadi, bu bir xil sharoitda o‘tkazilgan baholash natijalari qay darajada bir-biriga mos kelishini ko‘rsatadi.

**samaradorlik** - maqsadlar va rejalar ni ma’lum talablar: vaqt, xarajatlar, maqsadga erishish darajasi asosida amalga oshirish imkoniyati.

**asoslilik (validlik)** – bu tamoyil shuni ko‘rsatadiki, o‘rganilayotgan pedagogik hodisaning haqiqatan ham talab qilinadigan mezonlarini (krityeriyarni) o‘lchashga imkon beradi.

**tizimlilik va izchillik** – baholash amaliyotlari izchil va davriy ravishda amalga oshiriladi. Vaqt-vaqt bilan amalga oshiriladigan o‘lchovlar birgalikda ayrim bo‘limlar uchun ham, butun mazmun uchun ham nazorat choralaridan iborat yaxlit tizimni ifodalashi kerak.

**Keng qamrovllilik (komplekslik)** – funksional savodxonlikni shakllantirish vazifikasi mavzu mazmunini o‘zlashtirish natijalarini o‘lchashni, asosiy vakolatlarni shakllantirishni talab qiladi.

**xayrixohlik** – o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida sheriklik holatini yaratish, yutuqlarning o‘sishini rag‘batlantirish; o‘quvchilarni rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlashga e’tibor qaratish.

Mezon asosida baholashda o‘qituvchi uchun yo‘riqlar ham o‘zgaradi:

- o‘quvchining shaxsiyati emas, faqat uning ishi baholanishi kerak;
- o‘quvchining ishi – sinfda vazifani yaxshi bajargan o‘quvchilarning ishlari bilan emas, balki oldindan belgilangan va o‘quvchiga oldindan ma’lum

bo‘lgan etalon (standart) bilan taqqoslanadi;

- aniq vazifalarning turli shakllaridan foydalaniladi va risoladagidek bajarilgan vazifalarning aniq va aniq tavsiflari mavjud;
- baholashning (baho chiqarishning) aniq algoritmi ishlab chiqiladi, unga ko‘ra o‘quvchi o‘zi erishgan darajasi va tegishli bahoni o‘zi aniqlashi mumkin;
- o‘quvchilar o‘zlarini baholashga o‘tishga intilib, baholash jarayonida qatnashadilar;
- faqat o‘qitiladigan narsa baholanadi, shuning uchun baholash mezonlari ta’lim maqsadlarining o‘ziga xos ifodasidir;
- fan bo‘yicha umumiyligi ta’lim maqsadlari o‘quvchilarning ushbu fan bo‘yicha erishgan yutuqlarini baholash mezonlari bo‘lib, o‘quvchilarning individual ishlari bilan aniqlangan natijalarni umumlashtirishga imkon beradi.

## **Formativ va summativ baholash**

Mezonlari asosida baholash tizimi formativ (shakllanuvchi) baholash yoki joriy baholash va summativ (jamylanuvchi) yoki oraliq (yakuniy) baholashni o‘z ichiga oladi. Summativ baholashga o‘quv dasturi bo‘limlari tugaganda, chorak va yil oxirida o‘tkaziladigan oraliq va yakuniy baholashlar kiradi.

Formativ baholash sinfda yoki uydagi ta’lim olish jarayonida bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish darajasini aniqlashga mo‘ljallangan. U har xil shakllarda olib boriladi va o‘qituvchi va o‘quvchiga o‘z faoliyatlarini tuzatishga, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammo va kamchiliklarni bartaraf etishga imkon beradi. Formativ baholar summativ, choraklik va yakuniy baholarni chiqarishda hisobga olinmaydi.

Summativ baholash fanning yaxlit o‘quv bo‘limi mavzularini o‘rganish tugaganidan so‘ng shakllanishi lozim bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarining o‘zlashtirish darajasini aniqlash uchun mo‘ljallangan.

Summmativ baholash testlar, nazorat ishlari kabi baholash ishlarini bajarish natijalari bo'yicha amalga oshiriladi. Summativ baholash uchun qo'yilgan baholar fan bo'yicha choraklik, yillik yakuniy baholarini belgilash uchun asos bo'ladi.

Summativ baholash mezon asosida amalga oshgiriladi. Baholash mezonlari haqida o'quv jarayonining barcha ishtirokchilari: o'quvchilar, o'qituvchilar, ota-onalarning oldindan xabarlari bo'lishi lozim. Baholash mezonlari formativ baholashning ham ajralmas qismidir. Formativ baholashda baholash mezonlari o'quv materialining (mavzu yoki bo'limning) ma'lum bir qismiga yo'naltirilgan bo'lsa, summativ baholashda ular keng miqyosda qaraladi.

### **Mezonlarga asoslangan baholash mexanizmi**

O'qituvchi bajarilgan ish uchun olingan bahoni sinf jurnaliga va o'quvchining kundaligiga qo'yadi. Ushbu baho, yuqorida aytib o'tilganidek, o'qituvchi uchun ham, o'quvchi uchun kam ma'lumot beradi. Sinfda formativ baholashdan foydalanganda o'qituvchi o'zining shaxsiy daftariga o'quvchilar yutuqlarini turli qulay belgilar, piktogramma, ranglar, sharhlar shaklida qayd etib

borishi ham mumkin. Bu bilan o'qituvchi har bir o'quvchining kamchiliklari va ularni tuzatish yo'llari, shuningdek, belgilangan o'quv maqsadlari bilan bog'liq holda ularni rivojlanishining o'zgarish dinamikasini kuzatib boradi. Baholashning turli shakllari mavzuiy rejalashtirishda aks ettirilishi kerak. O'qituvchi chorak boshlanishidan oldin chorak davomida o'tkazilishi lozim bo'lgan baholashni rejalashtirishi kerak.

O'qituvchi baholash uchun

- 1) baholash turlarini belgilaydi;
- 2) baholash shakllarini ishlab chiqadi;
- 3) baholash mezonlarini tuzadi;

4) nazorat ishlari vaqtini belgilaydi.

O'quvchilarning o'quv-o'rghanish faoliyatini baholash bo'yicha barcha ma'lumotlarni toplash va saqlash, olingan ma'lumotlarni tahlil qilish zarur. Tahlillar har bir o'quvchining o'rghanish faoliyati va butun sinfning o'zlashtirishi dinamikasini o'rghanish maqsadida o'tkazilish shart.

Formativ baholashda ishning mazmuni va to'g'riliqi to'g'risida yozma yoki og'zaki qayd qilib boriladi. Natijalar dastlab jurnalga qo'yilmasligi mumkin. Bu holatda ular o'quvchi bilan muhokama qilinadi va o'qituvchining alohida tutgan daftariга qo'yiladi. O'quvchilar o'qituvchining bu sharhlari asosida ishlarni qayta ko'rib chiqadilar va xatolarini tuzatadilar. Shundan so'nggina aniqlanshtirilganbaholar jurnalga qo'yilishi mumkin.

Mavzular blogi yoki bobni o'rghanish tugagandan so'ng o'qituvchi summativ baholashni amalga oshiradi. Bunday ish endi baholash mezonlari yordamida amalga oshirilishi lozim bo'ladi. Chorak davomida o'qituvchi nazorat ishlari sonini rejulashtirishi kerak bo'ladi. Summativ baholashlar soni chorak davomida kamida uchta bo'lishi maqsadga muvofiq. Ushbu nazorat ishlari o'quvchilarning berilgan mavzular blogi bo'yicha bilim va ko'nikmalarini baholash bo'yicha tuzilgan topshiriqlardan iborat bo'ladi. Nazorat ishlari, standart talablari asosida o'rghanilgan bob mavzularining mazmunini iloji boricha to'liq qamrab olishi shart. O'qituvchi topshiriqlarni shunday tanlashi kerakki, ular faqat nazariy materialni o'zlashtirish, ya'ni bilim darajasini emas, balki o'quvchining o'zlashtirgan bilimlarini qo'llash darajasini ham tekshirishi lozim. Yaxshi o'zlashtirayotgan o'quvchilar uchun esa mulohaza yuritishga doir uchinchi darajali topshiriqlarni taklif etilishi lozim bo'ladi. Nazorat ishlari natijasida olingan baholar, keying darsda xatolar ustida ishlagandan so'ng tuzatishlar bilan jurnalga qo'yiladi.

Choraklik yakuniy baho faqat summativ baholar o'rta arifmetigi sifatida chiqariladi. Yillik yakuniy baho esa 4 ta choraklik baholar o'rtachasi sifatida

olinadi. Agar yil oxirida fan bo'yicha imtihon (yoki yakuniy nazorat) ham ko'zda tutilgan bo'lsa, yillik baho chorakli baholar o'rtachasi va imtihon (yoki yakuniy nazorat) bahosining o'rta arifmetigi sifatida olinadi.

## **ADABIYOTLAR:**

1. Rahimjon o'g'li, A. A. (2022). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA MANTIQIY TAFAKKUR RIVOJLANISHINING IJTIMOIY PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI. SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI, 1(2), 116-119.
2. Asqarov Anvarjon Rahimjon o'g'li. (2022). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARARNING AQLIY TARAQQIYOTINING RIVOJLANISHIDA O'YIN RIVOJLANTIRUVCHI FAOLIYAT SIFATIDA. Uzbek Scholar Journal, 5, 207–209.
3. Askarov, A. (2022). CREATIVE THINKING IN PRESCHOOL SOCIAL PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF DEVELOPMENT. Science and innovation, 1(B8), 87-91.
4. Asqarov, A. (2022). MAKTABGACHA YOSH DAVRDA KREATIV TAFAKKURNI RIVOJLANISHINING IJTIMOIY PSIXOLOGIK ASPEKTLARI. Eurasian Journal of Academic Research, 2(6), 882-883.
5. O'G'Li, A. A. R. (2022). XOTIRANI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS USULLARI. *Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali*, 1(6).
6. Rahimjon o'g'li A. A. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA MANTIQIY TAFAKKUR RIVOJLANISHINING IJTIMOIY PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI //SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI. – 2022. – T. 5. – №. 2. – C. 116-119.
7. Rahimjon o'g'li, Asqarov Anvarjon. "MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA MANTIQIY TAFAKKUR RIVOJLANISHINING IJTIMOIY

PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI." SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI 5.2 (2022): 116-119.

8. Rahimjon o'g'li, A. A., & Adxam o'g'li, X. A. (2023). INKLYUZIV TA'LIM OLAYOTGAN BOLALARNI TAFAKKUR SOHASINI O'RGANISH.
9. Xomidov , A. A. o‘g‘li, & Asqarov A. R. o. (2023). INKLYUZIV TA'LIM OLAYOTGAN BOLALARNI TAFAKKUR SOHASINI O‘RGANISH. *GOLDEN BRAIN*, 1(11), 299–302.
10. Xomidov , A. A. o‘g‘li, & Asqarov A. R. o. (2023). INKLYUZIV TA'LIM OLAYOTGAN BOLALARNI TAFAKKUR SOHASINI O‘RGANISH. *GOLDEN BRAIN*, 1(11), 299–302. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/3178>
11. Mirzaboyev, Y. (2023). FEATURES OF A COMPETENCY APPROACH TO THE IMPLEMENTATION OF THE NATIONAL CURRICULUM IN PRACTICE. *Science and innovation*, 2(B4), 63-67.
12. Irgashevich, D. M., & Azadovna, S. G. (2022). FORMATION OF A GENERAL APPROACH TO SOLVING PROBLEMS FOR PRIMARY EDUCATION ACCORDING TO THE REQUIREMENTS IN THE NATIONAL CURRICULUM OF UZBEKISTAN. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(6), 771-781.
13. MIRZABOYEV, Y. BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINING MATEMATIKA O 'QITISH METODIKASI. O 'RTA UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA MATEMATIKA O 'QITISHNING MAQSADI. *ЭКОНОМИКА*, 169-172.
14. Мирзабоев, Й. А. (2022). Тур Ўзгариш Чизиқлари Учта Бўлган, Гиперболик Қисмларининг Ҳаммаси Характеристик Учбурчаклардан Иборат Бўлган Бешбурчакли Соҳада Учинчи Тартибли Кўринишдаги Параболик-Гиперболик Тенглама Учун Битта Чегаравий Масала Ҳақида. *Theory And Analytical Aspects Of Recent Research*, 1(5), 363-366.

- 
15. Ra'noxon, S. (2022). BOSHLANG'ICH MAKTAB O'QUVCHILARIDA MATEMATIKAGA MUNOSABAT. *IJTIMOY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(11), 203-207.